O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI

«KELIShILDI»
Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi hududiy xay’at raisi
M.T.Xakimova _____
«__5__» ____03____ 2025 y.

« TASDIQLAYMAN»
Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi direktori
L.X.Musadjanova _____
«__4__» ____03____ 2025y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

FIZIOTERAPIYADA HAMSHIRALIK ISHI

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlari uchun)

O‘QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVCHILAR:

Sh.Q. Adilov	Xalq tibbiyoti, reabilitatsiya va jismoniy tarbiya kafedrasi dotsenti, t. f. n.
N.A.Shoislomova	Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi oqituvchisi

TAQRIZCHILAR:

A.A.Usmonxodjayeva	Xalq tibbiyoti, reabilitatsiya va jismoniy tarbiya kafedra mudiri, dotsent, t. f. n.
Z.Z.Imamova	Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari

O‘quv dasturi Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

«4» 03 2025 y. bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi L.X.Musadjanova

O‘quv dasturi direktorlar kengashida ko‘rib chiqildi,muhokama qilindi,tasdiqlashga tavsiya etildi.

«5» 03 2025 y. bayonnoma № 2

1. Kirish

Mamlakatimizda o‘rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmasevtika ta’limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ- 4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Soglikni saklash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish buyicha me’yoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi”buyrug‘i, O‘zbekiston Respublikasi Soglikni saklash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Dasturda o‘quv fanning mazmuni, uni o‘zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e’tiborga olingan.

O‘quv dasturi “Fizioterapiya hamshirasi ” yo‘nalishining o‘quv rejasi asosida tayyorlangan bo‘lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo‘ljallangan. Dastur fanlar bloklariga ajratilgan bo‘lib: kasbiy rivojlantirish moduli ma’naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog‘liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to‘g‘risida ma’lumotlar kiritilib, tibbiy taьlimda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo‘limlarni ketma-ketligini ta’minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o‘quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda davolash profilaktika muassasalari fizioterapiya bo‘limlari hamshiralarini malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq, lozim bo‘lgan yangi bilim va ko‘nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi lozim) yetarli darajada o‘zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad:

Sog‘liqni saqlashning davolash profilaktika muassasalarida faoliyat yurituvchi fizioterapiya xamshiralarni bilimlarini zamonaviy, innovasion, isbotlangan tibbiyot tamoyillariga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma’lumotlar bilan ularning malakaviy xarakteristikasiga mos holda oshirish. O‘qish natijasida hamshiralarning mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko‘nikmalarni egallash

1.2. Vazifalar:

- Umumiy malaka oshirish o‘quv jarayonini modulli tibbiy ta’lim tamoyili bo‘yicha, zamonaviy, innovasion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma’lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o‘quv dasturi bo‘yicha tizimli tashkillashtirish va tibbiy davolash muassasalarida ko‘rsatiladigan profilaktik,

tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko‘nikmalarni mustaqil qo‘llashga tayyorgarlikni shakllantirish.

- Amaliyotda sog‘liqni saqlash bo‘yicha asosiy qonunlarni, amaldagi direktiv hujjatlarni xamshiralarni ish faoliyatida qo‘llay bilishni o‘rgatish;
- Zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Tibbiyot sohasidagi yangiliklar,zamonaviy reabilitatsiya usullari, ularda bemorlarni parvarishlash, salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash, aholini tibbiy ko‘riklaridan o‘tkazish, biriktirilgan aholi guruxlari orasida profilaktik tadbirlar majmuasini amalga oshirish, ko‘p uchraydigan asosiy patologik holatlar va ularga olib keluvchi havf omillarini erta aniqlash mahoratini oshirish.
- Aholi salomatligini qayta tiklash va yanada mustahkamlash tibbiy yordamga muxtoj bemorlarni zamonaviy apparaturalarda davolash, inson xayotiga xavf soluvchi holatlarni kamaytirish, tibbiy yordam ko‘rsatish chora tadbirlari, hozirgi kunda qo‘llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to‘g‘risida ma’lumot olish.
- Aholi o‘rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ko‘p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o‘rgatish.
- Bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini mukammallashtirish;

1.3. Ta’lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O‘quv dastur bo‘yicha davolash profilaktika muassasalari fizioterapiya va reabilitatsiya bo‘limlari hamshiralari malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo‘riqnomalariga muvofiq, ya’ni mutaxassisligini *tasdiklovchi xujjati* bulgan hamshiralar uchun mo‘ljallangan.

1.4. O‘quv dasturni o‘zlashtira olish uchun zarur bo‘lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- Hamshiranining xuquqiy ma’suliyatlari, be’mor xuquqlari, roziligi, rad etishi, asosiy xayotiy ko‘rsatkichlarni o‘rganishdir,direktiv xujjatlarni o‘rganish.
- Tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko‘nikmalarini o‘rganish.
- Tibbiy reabilitatsiya bosqichlarini. Tibbiy reabilitatsiya yo‘nalishlarini.
- Reabilitatsiya bo‘limlaridagi bemorlarni parvarish qilish, reabilitasiya muolajalarni o‘tkazish.
- Tibbiy, jismoniy reabilitatsiya jihatlarni bilish. fizioterapiyada dorili terapiya usulini. Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanuvchilarni tibbiy ko‘rikdan o‘takzish, fiziologik o‘zarishlarni bilish, funksional sinamalarni o‘tkazish,
- Mutaxassisligi bo‘yicha chuqur va yangilangan to‘liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lgan, uzluksiz o‘z malakasini oshirishga tayyor bo‘lgan, o‘zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarni bilish va rioya qilish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

Sog‘liqni saqlash tizimining butun dunyo bo‘yicha rivojlanish tajribasi shuni ko‘rsatadiki tibbiy kadrlarni qayta tayyorlashda talablarni ishlab chiqishning vazifasi shakl va mazmunan bir xil ko‘rinishda mutaxassislarni ko‘p bosqichli qayta tayyorlash tizimini yaratish, bunda tayyorlangan kadrlar sog‘liqni saqlash muassasalarida to‘liq mustaqil ishlay olishi va kasbiy faoliyat davomida malakasining oshib borilishi, bemorlarga ish joyi va egallagan lavozimiga mos bo‘lgan kerakli malakaliy yordamni ko‘rsata oladigan imkoniyatda bo‘lishi lozim.Fizioterapiya xamshiralarini malakasi oshirish aholiga hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatishni ta’minlaydi.

O‘quv dasturining dolzarbligi amaliyotga asoslangan va muammolarga yo‘naltirilgan yondoshuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o‘quv materiallari va jarayonlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o‘ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan. Dastur asosiy va eng yangi adabiyotlardan, chet el olimlarining tarjima qilingan adabiyotlaridan, milliy va jahon standartlari asosida tuzilgan me’yoriy hujjatlardan, shu bilan bir qatorda, tibbiy reabilitatsiya yordami doirasidagi me’yoriy hujjatlar asosida tuzildi.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 soat xaftada, 36 kredit).

1.7. O‘qish shakli:

- kunduzgi - o‘qish ishdan ajralgan holda
- on/offline, masofaviy - an’anaviy o‘qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda

1.8. Mashg‘ulotlarni o‘tish tartibi: Mashg‘ulotlar O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi “Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to‘g‘risidagi” 160-son buyrug‘i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Mashg‘ulotlar 9-00 da boshlanib, 13-40 da tamom bo‘ladi.

1.9.Malaka oshirishdan so‘ng: tinglovchilarga tegishli namunadagi sertifikat beriladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA’LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta’lim (natijalari)dan so‘ng tinglovchi kompetensiyasi:

Tinglovchi “Fizioterapiya hamshirasi” mutaxasisligi bo‘yicha malaka oshirish o‘quv dasturini o‘zlashtirishi natijasida mutaxassislikni xususiyatlaridan kelib chiqib, malakaviy tavsifnoma bo‘yicha yangi umumiy va malakaviy ko‘nikmalarini takomillashtiriladi, quyidagi kasbiy kompetensiyalari oshadi:

Umumiy kompetensiyalar:

- hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirishi;
- so‘rov o‘tkazish, jismoniy ko‘rikdan o‘tkazish, ambulator va stasionar bemorlarga tibbiy kartani yozish;
- klinik sindromlarni patofiziologik tahlilini o‘tkazish, bemorlarda ularning yoshi va jinsini hisobga olgan holda tashxis qo‘yish, davolash, reabilitatsiya va profilaktika usullarini asoslashga tayyorligi va amalga oshirishi kerak;

- bemorlar bilan ishlashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma’lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma’lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagi;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- Tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, pasiyentlar va ularning yaqinlari bilan to‘g‘ri muloqot qilish.

Kasbiy kompetensiyalar:

- bemorlarga tashxisga muvofiq yetarli (fizioterapevtik) davolanishni olib borish;
- reabilitantlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlarini baholash, prognoz qilish va monitoring qilish, reabilitatsiya xizmatlarini yetkazib beruvchilar va iste’molchilar o‘rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish;
- reabilitatsiya infra tuzilmasi va undan reabilitatsiya maqsadlarida foydalanish imkoniyatini bilish;
- reabilitatsiya dasturlarining samaradorligi va sifatini nazorat qilish imkoniyati;
- o‘z faoliyatini jamiyatda qabul qilingan ma’naviy-xuquqiy me’yorlarga ko‘ra yuritish, konfidensial ma’lumotlar bilan ishlashda tibbiyot etikasi, qonunlar, me’yoriy-xuquqiy talablarga rioya qilish, bemor sirini saqlash.
- olingan ma’lumotlar asosida aholining salomatligini saqlash, davolash-profilaktika chora-tadbirlarini rejalashtirish va o‘tkazish, asoratlarni oldini olish, kasalliklarga olib keluvchi xavf omillarini aniqlash va ularni modifikatsiyalash;
- aholida o‘z salomatligini saqlash, sog‘lom turmush tarzi va sog‘lom oilani shakllantirish bo‘yicha sanitariya-targ‘ibot ishlarini olib borish.

3. “FIZIOTERAPIYADA HAMSHIRALIK ISHI ” malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	**Kasbiy rivojlantirish moduli**	**32**	**16**	**16**		
1.1	**O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.**	4	4	-		
1.2	Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Infeksion nazorat.	6	4	2		
1.4	Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi	6	2	4		
1.5	Sog’lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	**Mutaxassislik fanlar moduli**	**104**	**44**	**60**		
2.1	Zamonaviy fizioterapiya . Fizioterapiya bo‘limi hamshirasini ish faoliyati.Fizioterapiya bo‘limida yuritiladigan me’yoriy hujjatlar va amaldagi buyruqlar.	6	2	4		
2.2	Zamonaviy fizioterapiya uskunalari va ularning qo‘llanilishi. Fizioterapevtik muolajalarning inson organizmga ta’siri	12	4	8		
2.3	Elektr toki bilan davolash. Doimiy va impulsli,o’zgaruvchan toklar, elektromagnit maydonlar.	18	6	12		
2.4	Fototerapiya, ultratovush bilan davolash.	14	6	8		
2.5	Baroterapiya. Aerozolterapiya. Ingalyatsion terapiya. Azonoterapiya bilan davolash. Krioterapiya.	18	10	8		
2.6	Tabiiy fizioterapevtik omillar. Balneoterapiya	12	6	6		
2.7	Termik omillar bilan davolash. Gidroterapiya-suv bilan davolash.	6	2	4		
2.8	Kurortlar klassifikatsiyasi. O‘zbekiston shifo maskanlari.	12	6	6		
2.9	Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.	6	2	4		
3.0	Tanlov fanlar moduli	**4**	**-**	**4**	4	
	Attestatsiya	**4**				**4**
	Jami:	**144**	**60**	**76**	4	4

“FIZIOTERAPIYADA HAMSHIRALIK ISHI ”

malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv modullarining mazmuni

1.1.Modul.O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy sug‘urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul. Tibbiyotda raqamli texnologiyalar

Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.

Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma’lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

-tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;

- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;

- hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul. Infeksion nazorat.

Infeksion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o’tkazishda o’rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o‘ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o‘ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalanish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma’lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariyali holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4.Modul. Sterilizatsiyada zamonaviy usullar va texnika xavfsizligi.

Sterilizatsiya bo‘limidagi yuritiladigan me’yoriy hujjatlar.Sterilizatsiyani olib borish xonalaridagi aseptika va antiseptika tadbirlari, ularning talab darajasida bajarilish tartib va qoidalari. Antiseptikaning mexanik, fizikaviy, kimyoviy, biologik turlari. Antiseptik moddalarning guruhlari. Markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan sterilizatsiya bo‘limlari turlari. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta’minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar. Zararsizlantirish bo‘limlarida zamonaviy zararsizlantirish apparatlari, ular bilan ishlash. Zararsizlantirish usullari. Zararsizlantirish xonasi texnika xavfsizligi qoidalari. Dezinfeksiya vositalarini tayyorlashda xavfsizlik choralari va dezinfeksiya vositalari bilan zaharlanishda birinchi yordam ko‘rsatish. Avtoklavlarni turlari, tuzilishi, ishlash tartibi. Avtoklav ko‘rsatkichlarini ish jarayonida ahamiyati. Mehnatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etish. Zamonaviy sterilizatsiya apparatlari va texnika havfsizligi masalalari. Sterilizatsiyaning sifatini ta’minlovchi tadbirlar, uni tekshirish uchun zarur indikatorlar.

1.5. Modul. Sog’lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari.Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta’siri, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta’siri, tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1 Modul. Zamonaviy fizioterapiya . Fizioterapiya bo‘limi hamshirasini ish faoliyati.Fizioterapiya bo‘limida yuritiladigan me’yoriy hujjatlar va amaldagi buyruqlar.

Fizioterapiya bo‘limida yuritiladigan amaldagi buyruqlar. Tibbiy reabilitatsiyaning fizioterapevtik aspektlari. Tibbiy reabilitatsiya xaqida tushincha. tibbiy reabilitatsiya prinsiplari, bosqichlari. Sog‘lomlatirish texnologiyalari.SPA –texnologiyalari.

Tibbiy tashkilotlarda fizioterapevtik yordamni tashkil etish. Fizioterapevtik bulimlar ishni tashkil etish. Fizioterapevtik xamshiralarni funksional majburiyatlari.

Fizioterapiyaning asosini tashkil qiluvchi fizik omillar, klassifikatsiyasi. Fizik omillarning ta’sir mexanizmlari. Umumiy ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar. Fizik muolajalar yordamida kasallikning oldini olish. Fizioterapiya hamshirasi o‘rta tibbiy ma’lumotga ega bo‘lgan , fizioterapiya kursini bitirgan,kurs bo‘yicha ixtisoslikdan o‘tgan bo‘lishi kerak. Muolaja davomida bemorlarda noxush holatlar aniqlanganda ularni bartaraf qilish chora-tadbirlarini bilishi,bemorlarga yordam ko‘rsata bilishi kerak. Bemorlarga birinchi muolajaga kelganida vrach ko‘rsatmasini, buyurilgan muolaja

ta’sirini aytib tushuntiradi.Muolaja davomida bemor o‘zini qanday tutishi,nimani sezishi va qanday holatlarda zudlik bilan tibbiy xodimga xabar berishi lozimligini tushuntiradi. Muolaja davomida hamshira xonadan chiqib ketmay bemor ahvolidan xabar olib turadi.Apparatning ishlash tartibi.signal soatlarini kuzatib boradi. Sog‘liqni Saqlash Vazirligining amaldagi xujjatlari SSVning №88 sonli buyrug‘i 2022.24.03 “Tibbiyot xodimining odob axloq Kodeksi”,SSVning №284 sonli 2024.04.09 “Sog‘liqni Saqlash Vazirligi tizimidagi barcha tibbiyot davolash-Profilaktika hamda oliy va o‘rta maxsus taьlim muassasalari tibbiyot xodimlarining tibbiyot muassasalarida kiyim-boshni kiyib yuvish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”, SSVning№228 sonli buyrug‘i “Fizioterapiya hamshiralarining meyorlari va yuklamalarini bajarish” to‘g‘risida, SSVning №363 buyrug‘i to‘g‘risidagi va amaldagi buyruqlarni tinglovchilarga tushuntiradi.

2.2 Modul. Zamonaviy fizioterapiya uskunalari va ularning qo‘llanilishi. Fizioterapevtik muolajalarning inson organizmga ta’siri

O‘zbekistonda tibbiyot sohasida ishlatilayotgan zamonaviy fizioterapevtik apparatlar haqida ma’lumot berish. Ko‘p funksiyali zamonaviy apparatlar va ularning ishlash prinsiplari haqida tushuncha berish. Hamshiralarni yangi zamonaviy fizioterapevtik apparatlar bilan ishlashga o‘rgatish. Tashxis va davolash usullarining samaradorligi haqida ma’lumot berish.

Apparatlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lishi, apparatlarning ishlash tartibini to‘liq bilishi,texnika havfsizligiga rioya qila bilishi kerak Nuga best apparati ko‘p funksiyali massaj krovati , Nuga best apparatiga ko‘rsatmalar va moneliklar haqida tushuncha berish. Nuga best apparatini ishlash algoritmi.,BTL apparatlari (Traksion tortish apparati,Zarb tovushli terapiya).Ko‘p funksiyali BTL apparti tuzilishi. BTL apparatda ishlash tartibi.ko‘rsatmalarni va moneliklari haqida tushuntirish.

2.3 Modul Elektr toki bilan davolash. Doimiy va impulsli,o’zgaruvchan toklar, elektromagnit maydonlar.

Yuqori chastotali toklarni organizimga yuborish yo‘li bilan kasalliklarni bartaraf etish va inson salomatligini saklash.Yuqori chastotali toklarni kulash. Davolanish samaradorligini oshirish. Darsonvalizatsiyaning ayrim xususiy usullari.Franklinizatsiya utkazishni.

Past chastotali toklarni kulash. Davolanish samaradorligini oshirish.

Galvanik toklarga fizik xarakteristika. Xujayra va to‘qimalarda kechadigan biofizik jarayonlar. Odam organizmiga doimiy tokning ta’sir mexanizmi. Qo‘llanilishga ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar. Elektroforezning afzalligi. Elektroforez usulida dori moddalarini organizmga kiritish qoidasi. Ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar. Turli patologik xolatlarda xususiy uslublari.

Magnitoterapiya.Amplipulsterapiya Impulsli toklar, impuls shakllari va chastotasiga nisbatan klassifikatsiyasi (elektr uyqu, transkranial elektranalgeziya, diadinamik toklar

(DDT), sinusoidal modullangan toklar, flyuktuorizatsiya, interferensterapiya. Davolovchi ta’sir mexanizmi, usullari, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar. Magnitoterapiya.Magnit maydonining fizik tasnifi. Doimiy, o‘zgaruvchan, impulsli, “yuguruvchi” magnit maydoni manbalari. Magnit maydon ta’sir mexanizmi. Ko‘rsatma, qarshi ko‘rsatmalar. Turli patologik xolatlarda xususiy usullari**,** Amplipulsterapiyaning afzalligi. Davolovchi ta’sir mexanizmi, usullari, ko‘rsatma va qarshi ko‘rsatmalar.

2.4 Modul Fototerapiya, ulratovush bilan davolash

O‘zbekistonda tibbiyot sohasida ishlatilayotgan zamonaviy fizioterapevtik apparatlar haqida ma’lumot berish. Ko‘p funksiyali zamonaviy apparatlar va ularning ishlash prinsiplari haqida tushuncha berish. Hamshiralarni yangi zamonaviy fizioterapevtik apparatlar bilan ishlashga o‘rgatish. Tashxis va davolash usullarining samaradorligi haqida ma’lumot berish. Lazeroterapiya bilan davolash usullari. Ta’sir etish doirasi va samaradorligi. Ishlatish tartibi. Ultratovush terapiya. Ultrafonoforez. Vibroterapiya. Fizik omil tasnifi. Muhitga qarab ultratovushni yutilishi. Ultratovushning asosiy dozimetrik parametrlarni organizmga ta’siri. Ko‘rsatma, qarshi kursatmalar. Qo‘llaniladigan doza va usullari. Zarba to‘lqini terapiya. Fizik omil tasnifi, fiziologik ta’siri. Ko‘rsatma, qarshi kursatmalar. Qo‘llaniladigan doza va usullari. Turli patologik xolatlarda xususiy uslublari. Istisno etiladigan kasalliklar guruxi.Yorug‘lik bilan davolash. Yorug‘lik oqimining fizik xarakteristikasi. Turli spektrdagi nurlarning biologik ta’siri. Organizmda kechadigan fotobiologik jarayonlar. Ultrabinafsha nurlanishi. Biodoza aniqlash. Infraqizil nurlanishi. Lazerterapiya. Fotoxromoterapiya. Turli patologik xolatlarda xususiy uslublari.

2.5 Modul Baroterapiya. Aerozolterapiya.Ingalyatsion terapiya. Azonoterapiya bilan davolash.Krioterapiya.

Zamonaviy tibbiyotda fizik omillar yordamida davolash va reabilitatsiya qilish usullari tobora keng qo‘llanilmoqda. Shular orasida **baroterapiya, aerozolterapiya, ingalyatsion terapiya, azonoterapiya va krioterapiya** alohida o‘rin tutadi. Ushbu muolajalar organizmga dori-darmonlarni yetkazish, yallig‘lanish jarayonlarini kamaytirish, nafas yo‘llarini tiklash, to‘qimalarning regeneratsiyasini tezlashtirish va umumiy terapevtik ta’sirni kuchaytirishga qaratilgan bo‘lib, ko‘plab kasalliklar kompleks davosining muhim qismi sifatida qo‘llaniladi.

Baroterapiya bosim o‘zgarishidan foydalanib organizmning gaz almashinuvini yaxshilashga xizmat qilsa, aerozol va ingalyatsion terapiya dori moddalarini nafas yo‘llariga eng samarali shaklda yetkazib beradi. Azonoterapiya o‘zining kuchli antiseptik va regenerativ xususiyatlari bilan ajralib turadi, krioterapiya esa past haroratning biologik ta’siri orqali og‘riqni kamaytirish, shishlarni yo‘qotish hamda tiklanish jarayonlarini faollashtirish imkonini beradi.

Mazkur mavzu ushbu usullarning **fiziologik asoslari, qo‘llanish ko‘rsatmalari, afzalliklari, xavfsizlik choralari va amaliy ahamiyati**ni yoritish orqali tibbiy amaliyotda ularning o‘rnini yanada chuqur tushunishga yordam beradi.

2.6 Modul. Tabiiy fizioterapevtik omillar. Balneoterapiya

Tibbiyot amaliyotida tabiiy omillar asosida davolash usullari qadim zamonlardan buyon qo‘llanib kelinadi va bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Tabiiy fizioterapevtik omillar organizmga yumshoq, fiziologik ta’sir ko‘rsatishi, nojo‘ya reaksiyalar kamligi va reabilitatsiya jarayonida yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi. Bunday omillar qatoriga iqlim, quyosh nuri, havo va suv muolajalari, shuningdek, turli xil mineral suvlar va balchiqlar kiradi. Ular organizmning tabiiy himoya mexanizmlarini faollashtiradi, qon aylanishi va metabolik jarayonlarni yaxshilaydi, nerv tizimining faoliyatini muvozanatlashtiradi hamda ko‘plab kasalliklarda kompleks davolashning muhim qismi sifatida xizmat qiladi.

Tabiiy omillar asosida davolashning eng qadimgi va samarali yo‘nalishlaridan biri — balneoterapiya, ya’ni mineral suvlar bilan davolashdir. Balneoterapiya ichish, cho‘milish, dush, irrigatsiya va inhalatsiya kabi turli usullar orqali amalga oshiriladi va organizmga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatadi. Mineral suvlarning kimyoviy tarkibi, harorati, gazlar bilan to‘yinganlik darajasi va fizik xususiyatlari kasallikning turiga qarab shifobaxsh natija beradi. Bu muolaja ovqat hazm qilish tizimi, teri kasalliklari, mushak-tayanch apparati, qon-tomir hamda endokrin tizimlar faoliyatini yaxshilashda alohida ahamiyatga ega.

Ushbu mavzu tabiiy fizioterapevtik omillarning turlari, ularning organizmga ta’sir mexanizmlari, balneoterapiyaning ilmiy asoslari va amaliy qo‘llanilishiga bag‘ishlanib, zamonaviy reabilitatsiya va sanator-kurort davolash tizimida ularning o‘rnini chuqur yoritishga qaratilgan.

2.7.Termik omillar bilan davolash. Gidroterapiya-suv bilan davolash.

Fizioterapiya tibbiyotning organizmga tabiiy va sun’iy fizik omillar orqali ta’sir ko‘rsatib davolashga qaratilgan muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ushbu omillar ichida termik ta’sir vositalari va gidroterapiya keng qo‘llaniladigan, klinik jihatdan samaradorligi yuqori bo‘lgan muolajalar sirasiga kiradi. Termik omillar bilan davolash issiqlik va sovuqlikning fiziologik xususiyatlaridan foydalanib, to‘qimalarda qon aylanishini yaxshilash, metabolik jarayonlarni faollashtirish, og‘riqni kamaytirish va yallig‘lanish jarayonlarini pasaytirishga yordam beradi. Issiqlikning atrof-muskul tizimi, bo‘g‘imlar, periferik asablar va teri osti to‘qimalariga ijobiy ta’siri uni keng ko‘lamdagi kasalliklarda qo‘llash imkonini beradi.

Gidroterapiya, ya’ni suv bilan davolash esa termik, mexanik va kimyoviy omillarni birlashtirgan holda ko‘p qirrali shifobaxsh ta’sir ko‘rsatadi. Suvning harorati, bosimi, zichligi va harakatlanuvchanligi bemorga kompleks fiziologik ta’sir ko‘rsatib, qon aylanishini yaxshilaydi, mushaklarni bo‘shashtiradi, asab tizimini tinchlantiradi hamda immun jarayonlarni faollashtiradi. Gidroterapiyaning vannalar, dushlar, kompresslar,

suv osti massaji kabi shakllari ko‘plab somatik, nevrologik va ortopedik holatlarda samarali qo‘llaniladi.

Ushbu mavzu termik omillarning turlari, ularning organizmga ta’sir mexanizmlari, gidroterapiyaning asosiy usullari va ularning klinik qo‘llanilishiga bag‘ishlanib, fizioterapiyaning zamonaviy amaliyotidagi o‘rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

2.8 Modul Kurortlar klassifikatsiyasi. O‘zbekiston shifomaskanlari.

Kurortlar, kurortlar klassifikatsiyasi , sanator-kurortga boruvchilarni saralash, O‘zbekiston kurortlari haqida tushuncha berish. Shifo maskanlarida davolanish samaradorligini oshirish. Aholi o‘rtasida sanator-kurort tabiiy va fizioterapevtik muolajalarni targ‘ib etish.Bemorlarga birinchi muolajaga kelganida vrach ko‘rsatmasini, buyurilgan muolaja ta’sirini aytib tushuntiradi.Muolaja davomida bemor o‘zini qanday tutishi,nimani sezishi va qanday holatlarda zudlik bilan tibbiy xodimga xabar berishi lozimligini tushuntiradi. Kurortologiya– tibbiy ilmiy fan bo‘lib, tibbiy fizik omillarning davolash xususiyatlrini, ularning odam organizmiga ta’sirini, kurortlarda va kurortlardan tashqari muassasalarda ularni davolash va kasallikning oldini olish maqsadida qo‘llanilish imkoniyatini o‘rganadi, sanatoriya-kurortlarda davolash uchun to‘g‘ri keladigan va to‘g‘ri kelmaydigan ko‘rsat-malarni ishlab chiqaradi.Bundan tashqari, kurortologiya vazifalariga kurort resurslarini topish, aholining sanatoriya-kurortlarda davolanish yextiyojlarini o‘rganish, kurort qurilishining prinsip va normativlarini o‘rganish, kurort resurslarini sanitariya muhofaza qilish savollari kiradi.**Kurort** – tabbiy davolash omillariga, mineral manbalariga, shifo-baxsh balchiq qatlamlariga, maqbul iqlimga, shuningdek bemorlarning davolanishi va dam olishi uchun mo‘ljallangan bal’neotexnik, gidrotexnik inshoatlariga, sanatoriyalariga ega bo‘lgan joydir.Kurortlar asosiy tabbiy shifobaxsh omillar xarakteri bo‘yicha bir nechta tiplarga bo‘linadi: balneologik, balchiqli va iqlimli. Kurortlar-ning ko‘pchiligi o‘zida ikkita, uchta shifobaxsh omillarini saqlaydi.

2.8.Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha.Favqulodda vaziyatlar,ularning sabablari, turlali.Tibbiy saralash va triaj asoslari.Shoshilinch tibbiy yordam ko’rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya
va birinchi yordam ko‘rsatish tamoyillari.Qon ketishni to‘xtatish usullari.Yengil va og‘ir kuyishlarda tibbiy yordam ko‘rsatish.Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar,uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish.Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma’lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko‘rsatish.Shok holatlarida yordam ko’rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko’rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o‘pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun’iy nafas berishni o’tkazish algoritmi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA’MINOTI

4.1. O‘kuv bazalari: Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko‘chasi-2 , 14-uy
Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.
Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

4.2. Mashgulotlarni utkazish uchun zarur jixozlar ruyxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o‘tiladigan o‘quv auditoriyalari
Multimediali jamlanma: elektron doska,slaydlar to‘plami bo‘lgan rrt ko‘rinishli ma’ruzalar ,SD diskda ko‘rgazma materiallar, videofilmlar.
Klinik amaliy ko‘nikmalarni mustaxkamlash trening o‘kuv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.
Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriy ko‘rgazma va qo‘llanmalar,
Reabilitatsiya o‘tkazish uchun zamonaviy fizioterapevtik turli tibbiy apparaturalar.

4.3. ADABIYOTLAR RUYXATI

4.3.1. Qonunchilik va me’yoriy-xukukiy xujjatlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.
2.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining buyruq va me’yoriy hujjatlari.

4.3.2 Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. Adilov Sh.K., Usmanxodjayeva A.A. “Shifokor nazorati, shifobaxsh jismoniy tarbiya” o‘quv qo‘llanma, Toshkent 2014 y. - 152b.
2. Usmanxodjayeva A.A., Adilov Sh.K., Axmedova D.Sh. “Shifokor nazorati” fanidan laboratoriya mashg‘ulotlari bo‘yicha amaliy tavsiyalar, Toshkent, 2017 y. – 110 b.
3. Vasilyev V.D., A.A. Usmanxodjayeva “Jismomiy tarbiya va sport bilan shug‘ullauvchilarning tizimli mashg‘ulotlar tas’iri natijasida inson organizmdagi funksional (nafas, yurak qon tomir va vegetativ nerv tizimlari) holatini baholash” Toshkent. 2012 y. o‘quv uslubiy qo‘llanma – 32 b.
4. Usmanxodjayeva A.A., Adilov Sh.K va boshkalar. “Reabilitologiya va sport tibbiyoti”darslik. Toshkent, “Tafakkur” nashriyoti, 2020 y. – 344 b.
5. Mirzoyev O.M. Vosstanovitelnыye sredstva v sisteme podgotovki sportsmenov. M.: Fizkultura i sport, SportAkademPress, 2005. – 211s.
6. Yu.Gaziyeva. SPORT TIBBIYOTI uslubiy qollanma Toshkent 2012y

7. V.Ye.AvakovO.V. ChurilovaA.M.Sharipov“Rukovodstvo po okazaniyu pervoy neotlojnoy dovrachebnoy pomoщi.” 2010g.
8. Yu.Allayorov Yu.Tojiboyev“Favkulodda vaziyatlarda tez tibbiy yordam asoslari.”
9. K.E. Ulxujayev, B.T.Xudoyberganova “Fizioterapiya va tibbiy reabilitatsiya” 2004y
10. Pavlanova G.I “Fizioterapiya va massaj” fanidan o‘qitish materiallar to‘plami Toshkent 2022
11. C.A. Mamurov, D.B. Yusupova. “Fizioterapiya va massaj” 2022y
12. Usmanxodjayeva A.A., Adilov Sh.K,Visogorseva O.N. “Umumiy va xususiy fizioterapiya asoslari 2016

4.3.3. Elektron ta’lim resurslari

1. O‘zR Oliy va urta maxsus ta’lim vazirligi – www.edu.uz
2. O‘zR Soglikni saklash vazirligi - www.minzdrav.uz
3. Medpoisk http://www.medpoisk.ru/
4. Russkiy medisinskiy server http://www.rusmedserv.com/
5 Medisinskiy katalog ROS-MEDIC http://ros-medic.ru
6 www.adti.uz
7. http://www.medlinks.ru

-

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga kuyiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O‘zR SSVning 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrugi 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmasevtika kadrlarini kayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va kunikmalarini baxolash tugrisidagi Nizom» ga asosan o’tkaziladi.

O‘qish tugagandan so‘ng beriladigan hujjat: o‘quv dasturni o‘zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani muvaffaqiyatli topshirgan tinglovchilarga tegishli namunadagi sertifikat beriladi.